

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
Dsc.03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

ABDULLAYEV OLIMJON G‘AYRATOVICH

**MINTAQADA AGROSANOAT MAJMUASINI KLASTERLASH
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH
(Qashqadaryo viloyati misolida)**

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
in economic sciences**

Abdullayev Olimjon G'ayratovich

Mintaqada agrosanoat majmuasini klasterlash mexanizmini
takomillashtirish (Qashqadaryo viloyati misolida)..... 3

Абдуллаев Олимжон Гайратович

Совершенствование механизма кластеризации в агропромышленного
комплекса региона (на примере Кашкадарьинской области) 31

Abdullaev Olimjon Gayratovich

Improving the mechanism clustering agro-industrial complex in the region
(using the example of Kashkadarya region) 63

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 67

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
Dsc.03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

ABDULLAYEV OLIMJON G‘AYRATOVICH

**MINTAQADA AGROSANOAT MAJMUASINI KLASTERLASH
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH
(Qashqadaryo viloyati misolida)**

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Iqt4772 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.urdu.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Samiyeva Gulnoza Toxirova, iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent
Rasmiy opponentlar:	Ruzmetov Baxtiyar iqtisodiyot fanlari doktori, professor Norquvvatova Gulmira Izzatulayevna iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.09.2024.I.55.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "_____" soat _____:_____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, faks.: (99 862) 224-57-00, e-mail: info@urdu.uz)

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, faks.: (99 862) 224-57-00, e-mail: arm@urdu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "_____" _____kuni tarqatildi.

(2025-yil "_____" _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

I. S. Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

T. J. Raximov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD., dotsent

B. Ruzmetov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda an'anaviy yondoshuvlar samara bermayotgan, rivojlanish innovatsiyalarni joriy etishga kuchli zarurat sezayotgan hozirgi davrda oziq-ovqat xavfsizligi, dunyo aholisining sifatli agrosanoat mahsulotlariga ehtiyojini qondirish masalalari dolzarblik kasb etmoqda. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO)ga ko'ra¹, yer va suv taqchilligining kuchayishi, iqlim o'zgarishlarining keskinlashuvi, resurslarni boshqarishdagi qiyinchiliklar, narx o'sishi kabi bir qator muammolar ko'lami ortib boradi. Xalqaro savdo tashkiloti (ITA) bayonotida² 2023-yil holatiga ko'ra, dunyoda 52 foizdan, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada 70 foizdan ortiq suv resurslari inson faoliyati uchun sarflanmoqda. 2021–2023-yillarda to'yib ovqatlanmaslik holati 10,9 foizga, oziq-ovqat narxlari indeksi 20 foizga o'sgan. Klasterli ishlab chiqarish rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining 50 foizdan ortig'ini, xususan, AQSHda 60 foizni tashkil etadi³. Mamlakatlarda agrosanoatni klasterlashtirish amaliyotini takomillashtirish, izchillik bilan joriy etish masalalari dolzarb bo'lib bormoqda.

Global miqyosida mavjud resurslardan samarali foydalangan holda yuqori texnologiyali, ekologik toza mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan agrosanoat tizimini shakllantirish muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlar ko'lami kengayib bormoqda. Hususan, klasterlashtirilgan agrosanoat komplekslarida xom ashyo yaratish, dastlabki qayta ishlash, qayta ishlash, yarim tayyor va tayyor mahsulot ishlab chiqarish bo'g'inlaridagi faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarni takomillashtirish yo'nalishidagi ilmiy tadqiqotlarga ustuvorlik berilmoqda.

Yangi O'zbekistonning iqtisodiy salohiyatini oshirishda tarmoqlararo kooperatsiyani kengaytirish, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, sust rivojlangan hududlarning ishlab chiqarish, eksport salohiyatini oshirish vositasi sifatida klasterlashtirish islohotlari olib borilmoqda. Agrosanoat resurslaridan samarali foydalanish, qishloq xo'jaligi va sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, hududlarning mutanosib rivojlanishini ta'minlashda klasterlar iqtisodiy drayver maqomida ko'rilyapti⁴. O'zbekiston mintaqalarida agrosanoat korxonalarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish, tarmoqlar va hududlararo vertikal integratsiya jarayonlarini va faol investitsiyalash muxitini shakllantirish, logistik jarayonlarni optimal tashkil etish kabi dolzarb masalalari tarmoqni klaster tizimida rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Shu bois mamlakatimizda agrosanoat tarmog'ini optimallashtirish, tarmoqlar va hududlararo chuqur integratsiyasini klasterli amalga oshirish, korxonalarining innovatsion faoliyatini

¹ Elektron manba: <https://www.donorplatform.org/post/fao-statistical-yearbook-2023-world-food-and-agriculture/>

² Elektron manba: <https://www.trade.gov/trade-data-analysis> / <https://www.webfx.com/industries/industrial/agriculture/statistics/>

³ 1) Fronco S. et al. European Cluster Panorama 2021. Leveraging clusters for resilient, green and digital regional economies. Publications Office of the European Union. 2021. / DOI:10.2826/689035; 2) Elektron manba: https://www.clustercollaboration.eu/sites/default/files/2021-12/ECCP_European_Cluster_Panorama.pdf

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. EM: <https://lex.uz/docs/5841063>

kengaytirish, samaradorligini oshirish, rivojlanishni yuqori bosqichga olib chiqish borasida bajarilayotgan ilmiy tadqiqotlarga e'tibor kuchaymoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28 fevraldagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2021-yil 16 noyabrdagi PF-14-son "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2023-yil 10 yanvardagi PF-2-son "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2021-yil 15-dekabrda PQ-52-son "Meva-sabzavotchilik sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, tarmoqda klaster va kooperatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 24-iyuldagi №458-son "Qishloq xo'jaligi birlashmalarining a'zolari, meva-sabzavot klasterlari ishtirokchilari va tadbirkorlik subyektlariga mahalliy sharoitda yetishtirilgan intensiv ko'chatlar (pakana va yarim pakana) xo'raki, kishmishbop va sanoatbop tok ko'chatlari hamda payvandtaglarni sotib olish xarajatlarining bir qismini qoplash uchun subsidiya ajratish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Klaster nazariyasining fundamental rivojlanishida xorijlik olimlardan M. Porter, A. Marshall, P. Krugman, G. Becattini, R. Florida, E. Michael, J. Schumpeterlar⁵ ulkan xissa qushdi. Hududlar agrosanoatini klasterlashtirish masalalari M. Enrayt, E. Bergman, E. Feser, M. Delgado, S. Stern, K. Izsak, K. Ketels, G. Kucherlar⁶ tomonidan tadqiq etilgan.

MDH mamlakatlari olimlaridan I.S. Ferovalar, T.V. Kojinova, R.G. Shoroxov, Y.A.

⁵ Porter M. The Competitive Advantage of Nations. HBR. 1990. – p. 21 / https://economie.ens.psl.eu/IMG/pdf/porter_1990_-_the_competitive_advantage_of_nations.pdf; Marshall A. Principles of Economics. Vol-1. Macmillan and Company, 1890 - 754 pages; Krugman P. The new economic geography: Past, present and the future. RSAI 2004. – p. 26 / DOI: 10.1007/s10110-003-0180-0 / <https://www.rrojasdatabank.info/newecgeo04.pdf> ; G. Becattini et al. Industrial Districts and Inter-Firm Cooperation in Italy. Geneva: International Institute for Labour Studies, 1990.; Florida R. 2002. The Rise of the Creative Class: and How It's Transforming Work, Leisure, Community, and Everyday Life. NY: Basic Books./ <https://paas.org.pl/wp-content/uploads/2016/08/The-Creative-Class-Revisited-FLorida.pdf> ; Michael J. E. Regional Clusters and Economic Development: A Research Agenda. Published by De Gruyter 1996. / <https://doi.org/10.1515/9783110809053.190> ; Schumpeter J. Capitalism, Socialism and Democracy. Roudledge. London and NY. – 1942. – p.460 / https://periferiaactiva.wordpress.com/wp-content/uploads/2015/08/_joseph-schumpeter-capitalism-socialism-and-democracy-2006.pdf

⁶ Enright M. J. The globalization of competition and the localization of competitive advantage: policies towards regional clustering//The globalization of multinational enterprise activity and economic development. – Palgrave Macmillan, London, 2000. – C. 303-331.; Bergman, E.M., Feser, E.J. Industrial and Regional Clusters: Concepts and Comparative Applications. WVU Research Repository, 2020.; Delgado M., Porter M., Stern S. Defining Clusters of Related Industries. National Bureau Of Economic Research. Working Paper 20375. – 2014 – p.48 / https://www.nber.org/system/files/working_papers/w20375/w20375.pdf; Izsak K., Ketels Ch., Köcker G.M.. Smart Guide to Cluster Policy. European Union, 2016. doi:10.2873/48105.

Fedorova, A.P. Petrov, M.E. Buyanova, Ye.S. Dyatlova, A.A. Yefremov, M.A.Kazakovlar⁷ ning tadqiqotlari mintaqa agrosanoati tarmog'ini klaster usulida rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan.

Hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning nazariy-uslubiy asoslari, agrosanoatni klasterlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari, klasterlar faoliyatini tashkil etish, rivojlantirishga oid ilmiy-nazariy yondoshuvlarning ustuvorlik mezonlari M.A.Raxmatov, Ch.Murodov, T.M. Axmedov, A.M.Sodiqov, B.N.Navruz-Zoda, U.Saidaxmedov, X.Urdeshov, G.I.Zaxidov, E.A.Muminova kabi O'zbekistonlik olimlarining ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan.⁸

Mazkur tadqiqotlar klasterlashtirish nazariyasi va uslubiyotining rivojida muxim ahamiyat kasb etadi, hamda xususan, agrosanoat tarmoqlarini klasterlashtirish yo'nalishidagi tadqiqotlar uchun fundamental manbalar sifatida xizmat qiladi. Ammo olib borilgan ushbu tadqiqot ishlarida agroklasterni hududlararo klasterlashtirish mexanizmlarini optimallashtirishning kompleks yondoshuvlari yetarlicha o'rganilmagan. Hududlarning o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olingan holda klaster usulidan foydalanish imkoniyatlari, klasterlar hosil qilgan sinergiyani hudud ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini oshirishga yo'naltirish darajalari optimallikka tahlil qilinmagan.

Mazkur jihatlar, mavjud muammolar yechimining dolzarbligi, bu bo'yicha yetarlicha tadqiqotlar olib borilmagani, kutilayotgan tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligi mazkur tadqiqot mavzusini tanlashga asos bo'ldi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Iqtisodiyot va pedagogika universitetining F-1-101 "Globallashtirish sharoitida mintaqalar iqtisodiyoti raqobatbardoshligi o'sishiga metodologik yondashuvlar" (2023-2025 yy.) mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

⁷ Федорова И.С., Кожина Т.В., Шорохов Р.Г. и др. Промышленные кластеры и их роль в развитии промышленной политики региона. Монография – М.:ИНФРА-М; Красноярск, 2018. – 247 с.; Буянова, М.Э. Оценка эффективности создания региональных инновационных кластеров. Вестник Волгогр. гос.ун-та. - 2012. - № 2 (21). – С. 54-62.; Дятлова, Е.С. Методические подходы к оценке потенциала формирования промышленных кластеров (на примере Ленинградской области) / Е.С. Дятлова. – Автореферат дисс.на соискание уч.степ. к.э.н, спец. 08.00.05, Санкт-Петербург. – 2012. – 17с; Иванов Ю.Б. и друг. Организационный механизм создания кластерных структур: теория и практика формирования. Вестник УГТУ–УПИ. Серия экономика и управление. 2008. № 4. С. 49–57; Казаков, М.А. Теоретические и прикладные аспекты формирования и развития текстильного кластера региона (по материалам Ивановской области): – дисс.... канд. экон. наук: 08.00.01, 08.00.05, / М.А.Казаков . – Иваново, 2006.- 176 с.

⁸ М.А. Rahmatov, B.Z. Zaripov. Klaster-integratsiya innovatsiya va iqtisodiy o'sish. O'Q. Zamin nashr. Toshkent. - 2018.; Murodov Ch. Va boshq. Agroklasterni tashkil etishning nazariy asoslari. // Iqtisod va moliya ilmiy jurnali. 2014. № 2. 19-25-b.; Axmedov T.M. Управление территориальной организацией производительных сил и комплексным развитием регионов Узбекистана: иктисодиёт фанлари доктори илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. –Тошкент, 1992. – 26 б.; Sodiqov A.M. O'zbekiston mintaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va uni tartibga solish mexanizmlari: iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2006. - 20 b.; Navruz-Zoda B.N. Servis sohasi iqtisodiyotini klaster usulida barqaror rivojlantirish/Servis sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari: nazariya, metodologiya va amaliy Monografiya. Chisinau (Moldova), Globe Edit. 2022. 217 b. B:7-18.; Urdushev, Kh. et al. (2021) "The role of fruit and vegetable clusters in the development of agricultural sectors", Society and Innovation, 2(3/S), pp. 301–315.; Saidaxmedov U. Klaster nazariyasi va unga amaliy yondashuvlar. Jamiyat va innovatsiyalar. Society and innovations. Issue – 4 № 2 (2023). 51-56 b. /<https://inscience.uz/index.php/socinov/article/view/2784/2930>; Zaxidov G.I. O'zbekiston yengil sanoatida ishlab chiqarishni klaster usulida tashkil etish va boshqarish samaradorligi: iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –T., 2017. 57 b; Muminova E.A., Xonkeldiyeva K.R. To'qimachilik sanoati klasterlari faoliyatida boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish [Matn]: monografiya /E.A.Muminova, K.R.Xonkeldiyeva.- Farg'ona politexnika instituti. Farg'ona: ALFERGANUS, 2022.-166 b.

Tadqiqotning maqsadi agrosanoat korxonlarida hududlararo klasterlashtirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

agrosanoat korxonalarini klasterlashtirish jarayonida rivojlantiruvchi mexanizmlarni mintaqaning iqtisodiy-ijtimoiy holatidan kelib chiqib faollashtirish sharoitlarini nazariy jihatdan tadqiq etish;

mintaqada agrosanoat korxonalarini klasterlashtirish asosida tashkil etilgan iqtisodiy faoliyatini kompleks tahlil qilish va samaradorligini oshirishning uslubiy yondoshuvlarining ustuvor jihatlarini asoslash;

agrosanoat korxonalarini hududlararo klasterlashning ilg'or xorij tajribalarini tadqiq etish asosida O'zbekistonga qo'llash imkoniyatlarini baholash;

mintaqa agrosanoatida klasterlashtirishning hozirgi holatini tahlil qilish va klasterlashtirish negizida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish omillarini ustuvorlikga baholash;

mintaqa agrosanoatida klasterlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish algoritmlarini ishlab chiqish;

mintaqa agrosanoatida hududlararo klasterlash mexanizmlarini gibridd texnologiyalar asosida takomillashtirishning ilmiy tasniflarini ishlab chiqish;

klasterlar sinergiyasidan samarali foydalanish negizida, sinergiya oqimini optimal yo'naltirish masalasini shakllantirish va uni yechish asosida mintaqada agrosanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

FRM klaster modeli strategik belgilarining mintaqaja ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatiga ta'sirini baholash yordamida agrosanoatni klasterlashtirish mexanizmini takomillashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish;

klasterlashtirilgan mintaqaja agrosanoatini rivojlantirishning 2025-2029-yillar bo'yicha prognoz parametrlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Qashqadaryo viloyatidagi agrosanoat korxonalarini klasterlashtirish jarayoni tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini klaster usulida mahsulotlarni yetishtirish, qayta ishlash, saqlash va xaridorga yetkazishni o'z ichiga olgan integratsion, innovatsion, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy natijalarni olishda statistik kuzatuv, tahlilning taqqoslama usuli, omilli tahlil, klasterli tahlilning K-o'rtacha va ikki bosqichli guruglash usuli, abstrakt-mantiqiy, modeli yondoshuv, iqtisodiy-matematik va iqtisodiy-statistik, korrelyatsion va regression tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tarmoqlanuvchi algoritmlar asosida mintaqaja agrosanoatini tarmoqlar va hududlararo klasterli rivojlantirish mexanizmlarini gibridd texnologiyalar asosida takomillashtirish taklif etilgan;

mintaqada agrosanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorligini oshirishda klasterlar sinergiya oqimining quyi ($w_L = 0,329$) va yuqori ($w_U = 0,547$) vazn koeffitsiyentlari oralig'idagi hududlarning ($w_{opt} = 0,493$) vazn ko'rsatkichli sinergitik quvvatidan foydalanish mezonlari ilmiy asoslangan;

besh halqali FRM (Five Ring Model) klaster modeli strategik belgilarining mintaqaja ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatiga ta'sir darajalarini baholash asosida agrosanoat

korxonalarini vertikal integratsiya usulida subklasterli rivojlantirish mexanizmi takomillashtirilgan;

klasterlashtirilgan mintaqa agrosanoatini rivojlantirishning vaqt seriyali va ko'p omilli modellar asosida 2025-2029 yillar bo'yicha prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mintaqada agrosanoatini klasterlashtirish negizida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning sxematik tasnifi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda klasterlashtirish usulining afzalliklari asoslangan;

agrosanoatning klasterli tizimini rivojlantirishning mintaqa ijtimoiy-iqtisodiyot salohiyatini oshirishda strategik darajadagi muxim omil ekanligi sobit va tasodifiy ta'sir modellarining natijalarini Xausman testi tashxislarini tahlil qilish yordamida isbotlangan;

agrosanoat klasteri faoliyatini yangi tuzilma (subklaster)ni tshkil etish asosida kengaytirish algoritmi ishlab chiqilgan;

klasterni rivojlantirish mexanizmlarini gibrid texnologiyalar asosida takomillashtirish algoritmi ishlab chiqilgan va bu orqali agrosanoat klasterlarini innovatsion klasterlar maqomiga ko'tarish izchilligi asoslangan;

mintaqada agrosanoat tarmog'ini klasterlashtirish amaliyoti keng joriy etilgan vaqtdan boshlab, klasterlar hosil qilgan sinergiya ko'lami 4 ta guruhda turli darajada shakllanayotgani asoslangan va bu darajalarning tafovutlariga ko'ra lider guruh tarkibi aniqlab berilgan;

mintaqada agrosanoatining klasterli salohiyati asosida sinergiyani yaratish oqimini vazn koeffitsiyentlarida kuzatish usulini joriy etish asosida optimal yo'naltirish mezonlari ishlab chiqilgan;

mintaqada klasterlashtirilgan agrosanoati samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari asoslangan;

subklasterlar asosida rivojlanuvchi agrosanoat klasterlarining mintaqada iqtisodiy potensialiga ta'sir etish mexanizmi takomillashtirilgan;

agrosanoat klasterlarini subklasterlarli kengaytirish negizida rivojlantirish mexanizmining gibrid texnologiyalar asosida har bir bo'g'inida takomillashtirish belgilari bo'yicha ilmiy takliflar berilgan va ularning samaradorligi baholangan;

klasterlashtirilgan mintaqa agrosanoatini rivojlantirishning vaqt seriyali va ko'p omilli bashoratlash modellari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada foydalanilgan ma'lumotlarning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi rasmiy manbalaridan, mintaqadagi agrosanoat klasterlarining davriy hisobotlaridan olinganligi, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarining tegishli vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati agrosanoatda hududlararo klasterlash mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va tavsiyalar mintaqada agrosanoat tizimini rivojlantirish, ko'p bosqichli ishlab chiqarishni tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi konsepsiyasi doirasida nazariy-uslubiy takomillashtirish jarayonlarida foydalanish

mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va amaliy tavsiyalardan agrosanoat tarmog'ida yuqori texnologiyali mahsulotlarni ishlab chiqarish, sohada innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda, shuningdek, "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti", "Sanoat iqtisodiyoti", "Innovatsion iqtisodiyoti", "Mintaqa iqtisodiyoti", "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi" kabi fanlardan darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalarni takomillashtirishda hamda qishloq xo'jaligini sanoatlashtirish bilan bog'liq muammolar doirasida quyi bosqich tadqiqotlari (bitiruv malakaviy ishi, magistrlik dissertatsiyalari)ni bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Agrosanoatda hududlararo klasterlash mexanizmini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tarmoqlanuvchi algoritmlar asosida mintqa agrosanoatini tarmoqlar va hududlararo klasterli rivojlantirish mexanizmlarini gibril texnologiyalar asosida takomillashtirish taklifidan "Qashqadaryo viloyatini 2024-2025 yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha yo'l xarita"sini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligining 2025-yil 10-may 05/04-04-223-son, Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasining 2024-yil 11-dekabrdaqi 01-01-77-son ma'lumotnomalari). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi Qashqadaryo viloyatida agrosanoat klasterlari a'zolarining umumiy manfaatlarini meyyorlashtirish mezonlarini algortmik optimallshtirish asosida subyektlarning samarador integratsiyasini ta'minlashga xizmat qildi, gibril texnologiyalar asosida takomillashtirilgan rivojlantirish mexanizmlari asosida tarmoqda yuqori qo'shilgan qiymatni yaratish imkoniyatlari oshdi.

mintaqada agrosanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorligini oshirishda klasterlar sinergiya oqimining quyi ($w_L = 0,329$) va yuqori ($w_U = 0,547$) vazn koeffitsiyentlari oralig'idagi hududlarning ($w_{opt} = 0,493$) vazn ko'rsatkichli sinergitik quvvatidan foydalanish mezonlaridan "Qashqadaryo viloyatini 2024-2025 yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha yo'l xarita"sini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligining 2025-yil 10-may 05/04-04-223-son, Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasining 2024-yil 11-dekabrdaqi 01-01-77-son ma'lumotnomalari). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi Qashqadaryo viloyatida agrosanoatni hududlararo klasterlashtirishning ustuvor yo'nalishlarini ilmiy asoslashga xizmat qildi. Agrosanoat klasterlari faoliyati natijasida hosil bo'lgan sinergitik quvvatni hisoblash uslubiyotini takomillashtirish asosida turli darajali sinergetik quvvatga ega klaster hududlarini guruhlashga imkon berishi ularning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish yo'nalishida tarmoq samaradorligini 7,7 foiz, innovatsion faollikni 24,3 foiz, eksport salohiyatini 29,8 foiz oshirishga erishildi.

klasterlashtirishning besh halqali FRM (Five Ring Model) klaster modeli strategik belgilarining mintqa ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatiga ta'sir darajalarini baholash asosida takomillashtirilgan agrosanoat korxonalarini vertikal integratsiya usulida subklasterli rivojlantirish mexanizmidan "Qashqadaryo viloyatini 2024-2025 yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha yo'l xarita"sini ishlab chiqishda

foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vazirligining 2025-yil 10-may 05/04-04-223-son, Qashqadaryo viloyati qishloq xo‘jaligi boshqarmasining 2024-yil 11-dekabrda 01-01-77-son ma‘lumotnomalari). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi Qashqadaryo viloyati agrosanoatda tizimli ishlab chiqarish komplekslarini shakllantirishga xizmat qildi. Agrosanoat klasterlarini subklasterli kengaytirish negizida, gibridd texnologiyalar asosida rivojlantirish mexanizmining besh bo‘ginli takomillashtirish belgi (komponent)lari bo‘yicha 20 dan ortiq mintaqaviy strategik ahamiyatli amaliyotning joriy etilishiga zamin yaratildi.

klasterlashtirilgan mintaqa agrosanoatini rivojlantirishning vaqt seriyali va ko‘p omilli modellar asosida 2025-2029 yillar bo‘yicha ishlab chiqilgan prognoz parametrlaridan “Qashqadaryo viloyatini 2024-2025 yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha yo‘l xarita”sini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vazirligining 2025-yil 10-may 05/04-04-223-son, Qashqadaryo viloyati qishloq xo‘jaligi boshqarmasining 2024-yil 11-dekabrda 01-01-77-son ma‘lumotnomalari). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi Qashqadaryo viloyatida klasterlashtirilgan agrosanoati orqali maydonlarini optimal joylashtirish, joriy resurslardan samarali foydalanish asosida qo‘shimcha mahsulotlari ishlab chiqarish imkoniyatlari yaratildi. Qishloq xo‘jaligida hosildorlik va mahsuldorlikning oshishiga, suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish ko‘laming kengayishiga, agrologistika tizimini optimallashtirishga, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashga, meva-sabzavotchida, chorvachilikda qayta ishlash jarayonlarini rivojlantirishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari bo‘yicha jami 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamalardan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 7 ta ilmiy maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, to‘qqizta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, Respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy ishning yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi va amaliyotga joriy qilinishi ochib berilgan, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, e‘lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Agrosanoatda hududlararo klasterlashning nazariy-uslubiy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida agrosanoatni klasterlashtirishning nazariy asoslari, rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari va muammolari tadqiq etilgan, agrosanoatda hududlararo klasterlash mexanizmining uslubiy yondoshuvlari, takomillashtirish manbalari, klasterli tahlil usulini amalga oshirish algoritmi keltirilgan. Agrosanoatni klasterlashning jahon tajribasi va uni O‘zbekiston sharoitida

qo'llash masalalari bayon etilgan.

Klasterlarning tarmoq va hududiy qamrovi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot va xizmatlarning xususiyatlariga bog'liq turli ta'riflari M.Porter, Sh.Xubert, G.Vann, M.Prevezer, S.Rosenfeld kabi olimlar tomonidan keltirilgan bo'lib, bizningcha boshqa yondoshuvlarni ham umumlashtirirganda "klasterlar - bu ma'lum bir geografik hududda joylashgan, o'zaro bog'liq bo'lgan va o'zaro hamkorlik qiluvchi kompaniyalar, ta'minotchilar, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar va boshqa iqtisodiy sub'ektlarning birlashgan tizimidir" tavsifi berildi.

Klasterlashtirish nazariyasi sifatida M. Porterning raqobatbardoshlik, A.Marshallning tashqi iqtisodiyot, X.Xotelning joylashuv, P. Krugmanning iqtisodiy geografiya, G.Fordning ishlab chiqarish, P.Drukerning menejment nazariyalari o'rganildi hamda agrosanoatni klasterlashning ustuvor jihatlarini belgilovchi asosiy omillar bilan bir qatorda mavjud xavflarga ilmiy jihatdan tavsiflari berildi.


Tadqiqotimizda klasterlashtirish uslubiyoti klasterlashtirish amaliyotini tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirishda qo'llaniladigan vosita sifatida ko'rib, uning ahamiyati nazariyani amaliyotga ko'chirish zanjirining muxim halqasi sifatida baholandi (1-rasm).



1.-rasm. Klasterlashtirish mexanizmini takomillashtirish manbalari⁹

Bu yerda klasterlashtirish mexanizmining vazifasi mavjud muayyan bir harakatni boshqa bir xarakatga o'tkazib berishdan iborat. Biroq mana shu o'tkazuvchanlik xususiyati samarali bo'lishligida mexanizmi vujudga keltiruvchi nazariya va amaliyot natijasi o'rtasidagi uslubiyat va uni amalga oshirish algoritmlari hisoblanadi. Y.B.Ivanov, Y.Motoyamalarning ilmiy xulosalarida klasterlashtirish mexanizmi hududiy, faoliyat turi, mintaqadagi mavjud huquqiy asoslar, mintaqaning ixtisoslashuvi, tarmoqning investetsion salohiyati kabi jihatlariga ko'ra o'zaro farqlanadi va klassik mexanizmlarning hududiy takomillashuvini taqozo etadi. Bizning holda ushbu turlichalikda eng muqobil uslubiyot sifatida klasterli tahlilning K-o'rtacha, ierarxik va ikki bosqichli usullari afzallik mezonlarida tanlandi (2-asm).

⁹ Manba: muallif ishlanmasi



2-rasm. Klasterli tahlil usulini amalga oshirish algoritmi¹⁰

Klasterlarni rivojlantirish strategiyalari ishlab chiqishda ushbu usubiyotdan foydalanish 8 ta bosqichda amalga oshadi. Bularga, ma'lumotlar to'plash, hudud hususiyatlarini o'rganish, normallashtirish, metrikalash, klasterlash algoritmini tanlash, sifatga baholash, optimallashtirish, rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish kiradi.

Ushbu jarayonda gipotezik yondoshuv katta ahamiyatga ega bo'lib, amaliyotga qullash jarayonida ularni asoslash uchun turli tadqiqot usullaridan foydalaniladi. Fikrimizcha agrosanoatni klasterlashtirish mexanizmini takomillashtirishda miqdoriy ko'rsatkichlarga asoslangan gipotezalarini tekshirishning empirik uslublari o'zaro aloqadorlikda yaxshi samara beradi. Tadqiqotimiz jarayonida o'rganilgan nazariy manbalar, uslibiy yondoshuvlarga asoslanib, agrosanoat klasterlarni rivojlantirish uchun tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning takomillashtirishni talab etuvchi jihatlari asoslandi. Hususan,

1. Klaster boshqaruvini shakllantirish orqali klaster a'zolarining hamkorligini tashkil qilish, loyihalarni muvofiqlashtirish va klasterning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish, maqsad va vazifalarni belgilash, ular orasida

¹⁰ Manba: muallif ishlanmasi

investitsiyalar jalb qilish, eksportga chiqish kabi maqsadlarni rejalashtirish kerak.

2. Klasterlarni rivojlantirishda davlat tomonidan quvvatlanishi, davlat imtiyozlari kiritilishi va klaster ishtirokchilariga qo‘shimcha moliyaviy yordam berishi kerak.

3. Klasterlarning moliyaviy barqarorligi va rivojlanishi uchun to‘g‘ri moliyaviy mexanizmlar joriy etilish, klasterdagi korxonalar va tadbirkorlarga arzon kreditlar ajratilishi, grantlar va subsidiyalar orqali moliyaviy qo‘llab-quvvatlanishi kerak.

4. Texnologik rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash orqali, klasterlarni rivojlantirish uchun innovatsiyalar va texnologiyalarni qo‘llash mexanizmlari ham muhimdir. Buning uchun, klasterlar atrofida texnologik parklar va innovatsion markazlar tashkil etilishi, bu joylarda yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va ulardan foydalanishni rag‘batlantirish zarur. Xorijiy ilg‘or texnologiyalarni mahalliy korxonalariga o‘tkazish orqali klaster korxonalarining samaradorligini oshirish, bunda texnologiya transferi markazlari muhim rol o‘ynaydi.

5. Kadrlar tayyorlash va rivojlantirishda ularning malakasini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini shakllantirish zarur.

6. Klaster korxonalariga maqsadli bozorlar bo‘yicha tahlillar, tendensiyalar va raqobatchilar haqida ma‘lumot berish uchun bozor tadqiqotlarini muntazam o‘tkazish muhimdir.

Agrosanoat komplekslarini ishlab chiqishda ilg‘or xorij tajribasini o‘zlashtirish katta ahamiyat kasb etadi. Shu bois tadqiqot ishimizda xorij tajribalarini mamlakatimizda qo‘llash imkoniyatlari baholandi. Ilmiy yondoshuvlarimizga ko‘ra avvalo agrosanoat tizimida ilg‘or marketing strategiyasini ishlab chiqish zarur. Fujrimizcha marketingning differensial, fokusli, brendlash, raqamli strategiyalarini qo‘llash orqali klasterning bozor muvaffaqiyati ta‘minlanadi. Shuningdek, marketingning 4P modelidan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Chunki, mazkur model mahsulot (Product) bo‘yicha bozor talablaridan kelib chiqib mos mahsulotlarni ishlab chiqarish va xizmatlarni taklif etadi. Narx (Price) tamoyilida mijozning to‘lov qobiliyati va mahsulot raqobatbardoshligiga qarab narx siyosati yuritiladi. Targ‘ibot (Promotion) tamoyilida bozor talabini o‘zgartirish darajasida targ‘ibot strategiyalari ishlab chiqiladi. Joylashuv (Place) tamoyilida mahsulot va xizmatlarni yetkazish qulayliklari ishlab chiqiladi. So‘ngi paytlarda online faoliyat turlarining kengayishi aynan mana shu marketing tizimida kuzatilmoqda.

Umuman olganda, mamlakatimiz, jumladan Qashqadaryo viloyatida quyidagi xorijiy tajribalardan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- agroturizm salohiyatini hisobga olib, mazkur yo‘nalishga tegishli infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha hududiy klasterlar tashkil qilish;

- transport infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha har yillik davlat dasturlarini qabul qilish va ularni amalga oshirish;

- davlat-xususiy sherikchilik asosida agrosanoat tarmog‘ida infratuzilmasini rivojlantirish hamda sifatini oshirish;

- agrosanoat korxonalarining klasterli faoliyatini kengaytirish, xom-ashyo ishlab chiqarishdan tortib tayyor mahsulotgacha bo‘lgan, vertikal integratsiyalashgan klaster tizimiga o‘tish;

- agrosanoat tizimida markazlashgan boshqaruv usulidan to‘liq voz kechish va klasterli boshqaruv usullarini joriy etish;

- klasterlarning yangi bozorga kirish amaliyotini zamonaviy marketing tamoyillari asosda amalga oshirish;

- potensial agroklasternegizida chuqur integratsiyalashgan ko'p tarmoqli faoliyatni tashkil etish va mahsulot (xizmat)ning butun bir hayot siklini yaratishga erishish;

- klasterlarda faoliyat yurituvchi mahalliy xodimlarning mutaxassisligi bo'yicha yangi bilimlarga ega bo'lish usullarini yangilash, malakasini oshirishning operativ usullarini joriy etish va intellektual resurslardan foydalanishning yuqori darajalarini ta'minlash;

- klasterlarning huquqiy-iqtisodiy mustaqilligini kuchaytirishda liberallashtirilgan modeldan foydalanish, hamda davlatning qo'llab-quvvatlash siyosati yaratib beradigan imtiyoz va imkoniyatlardan samarali foydalanish.

Ushbu tavsiyalar mintaqada klasterlashtirish jarayoniga optimal yondoshuvni ta'minlaydi. Biroq, har qanday ilg'or xorij tajribasining tadbiiq etilishi ma'lum bir davr yoki bosqichdan keyin milliy modelning vujudga kelishini kafolatlashi tanlovning mukammal darajasi bilan bir vaqtda joriy etish izchilligi, qabul qilish qobiliyati hamda mintaqada innovatsion muxitning yaratilganlik darajasi bilan bog'liq bo'lib qolaveradi.

Dissertatsiyaning **“Qashqadaryo mintaqasida agrosanoatni hududlararo klasterlashning hozirgi holati tahlili”** deb, nomlangan ikkinchi bobida, mintaqada agrosanoatida klasterlashtirishning hozirgi holati, agrosanoatni klasterlashtirish negizida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish omillari tahlil etildi. Qashqadaryo mintaqasi agrosanoat klasterlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish algoritmlari ishlab chiqildi.

Mamlakatimizda 2017-yildan boshlab paxta-to'qimachilik va meva-sabzavot klasterlari tizimi joriy etila boshlandi. Mazkur tizim faoliyati natijasida 2017 yilda 13 ta ta klaster shakllantirilgan bo'lsa, 2022-yilga kelib ularning soni 633 tani tashkil etdi. Bugungi kunda mamlakatimizda jami 669 ta agroklasterni mavjud bo'lib, shundan, meva-sabzavotchilik klasterlari 136 tani, g'allachilik klasterlari 126 tani, paxta-to'qimachilik klasterlari 153 tani, chorvachilik klasterlari 34 tani, sholichilik klasterlari 41 tani, dorivorchilik klasterlari 8 tani, qorako'lchilik klasterlari 46 tani, parrandachilik klasterlari 11 tani, baliqchilik klasterlari 38 tani hamda pillachilikga ixtisoslashgan klasterlar soni 76 tani tashkil etmoqda. Qashqadaryo viloyatida asosiy uch turdagi klasterlar mavjud bo'lib, ularning umumiy soni Respublikadagi jami klasterlarning 11,5 foizini tashkil etadi. Biriktirilgan yer maydoni bir klaster bo'yicha Respublikada o'rtacha 3269,5 gektarni tashkil etsa, viloyatda 3810 gektarga teng. Shundan klasterlarning o'ziga tegishli maydon kattaligi biriktirilgan umumiy yer maydonining 13,1 foizini, viloyatda esa 11,6 foizini tashkil etadi. Mintaqada Respublikaga nisbatan klasterlariga biriktirilgan yer maydonida fermer xo'jaliklari yer maydoni nisbatan katta ulushni tashkil etmoqda. Qashqadaryo viloyatida hozirda 77 ta agroklasterni mavjud, shundan 31 ta meva-sabzavotchilik, 18 ta paxta-to'qimachilik, 28 ta g'allachilik va yo'nalishdagi klasterlar mavjud bo'lib boshqa turdagi klasterlar tashkil etilmagan. So'ngi yillarda paxta-to'qimachilik klasterlari tomonidan 485 milliard so'mlik investitsiya loyihasi amalga oshirildi. Ishlab chiqarish va iste'mol zanjirida investitsiyalardan foydalanish samaradorligi albatta joriy qilingan usulga bog'liq

bo'lib, klasterlashtirish usuli tarmoqning investitsiya muhitini yaxshilashga katta hissa qo'shmoqda. Jumladan 2023-yilga kelib klasterlar tomonidan sohaga 510 mln. AQSh dollari hajmidagi investitsiyalar jalb qilindi. Agrosanoat tarmog'ida investitsiyalardan foydalanish samaradorligi klasterlashtirish amaliyoti keng joriy etilishi fonida sezilarli darajada oshib bordi. Xususan, chiqarishda foydalanilgan investitsiya birligiga mos keluvchi ishlab chiqarish hajmi chiziqli, nisbatan tez o'suvchi tendensiyaga ega bo'lib, 2023-yilda 2018-yilga nisbatan 0,113 birlikga oshgan. Marketing faoliyatida foydalanilgan investitsiya birligiga mos keluvchi sotilgan mahsulot hajmi chiziqli, nisbatan sekin o'suvchi tendensiyaga ega bo'lib, 2023-yilda 2018-yilga nisbatan 0,81 birlikga oshgan. Mazkur holatda ishlab chiqarish faoliyatida sarflangan investitsiya samaradorligi nisbatan tezkor sur'atda o'sishi to'g'ridan-to'g'ri umumiy resurs samaradorligiga bog'liq bo'lish ehtimoli yuqori. Bu holatning asoslanishi klasterlashtirish usulining afzallik xususiyatlari ko'lamini kengaytiradi. Marketing faoliyatidagi kuzatish natijalari esa, klasterlar faoliyatida innovatsion rivojlanishga e'tiborni kuchaytirish zarurligini ifoda etmoqda.

Ishlab chiqarish faoliyatida investitsiya samaradorligining umumiy resurs samaradorligiga bog'liq bo'lish ehtimoli darajasini baholashda klasterlarining ishchi kuchidan foydalanish samaradorligi ko'rib chiqildi.

Vaqt birligida bajarilgan real ish hajmining o'zidan oldingi davrga nisbatan o'zgarishi sekin o'suvchi, biroq kuchli tebranma tendensiyaga ega bo'lib, tebranish nisbatan so'ngi besh yillikning oxiriga to'g'ri keladi. O'rtacha o'sish sur'ati mazkur davrlarda 0,2 foizni tashkil etadi. Agroklastarlarda mehnat unimdorligi sekin o'smoqda. Biroq, vaqt birligida bajarilgan real ish hajmining o'zidan oldingi davrga nisbatan o'zgarishi nomonoton xossaga ega deyish mumkin. Bu esa jarayonda mehnat resurslari samaradorligini oshirishda muammolar mavjudligini ifoda etadi. Ushbu muammoning natijaviylikga ta'sir darajasi agar agrosanoatining klasterlashtirish natijasida erishilgan asosiy ko'rsatkichlarning o'sish sur'atlarida nomayon bo'lsa, mohiyat ish haqi harajatlari doirasidan tashqariga chiqib ketishiga ishora qiladi. Shu sabab mintaqa agrosanoatining klasterlashtirish natijasida erishilgan asosiy ko'rsatkichlarning o'sish sur'atlari dinamikasiga e'tibor qaratildi (1-jadvalda keltirilgan). Ushbu holat tizimni modernizatsiyalash, innovatsiyalashuv darajasining talab darajasida ekanligini anglatadi. Biroq kadrlar salohiyatini va mehnat samaradorligini oshirish mazkur erishilgan natijalarning o'sish sur'atiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli klasterlar faoliyatida pasayish nuqtalarini doimiy nazorat qilish, muammolarni hal etishning kamxarajat modellarini joriy qilish kerak. Bunda klaster korxonalarining investetsion salohiyatini yanada oshirish talab etiladi.

Qashqadaryo viloyatida agrosanoatini klasterlashtirish natijasida erishilgan asosiy ko'rsatkichlarning o'sish sur'atlari¹¹

Ko'rsatkichlar (o'sish sur'ati, %)	Yillar						O'rtacha o'sish,%
	2018	2019	2020	2021	2022	2023	
Paxtani qayta ishlashda	5,6	8,4	9,7	15,7	16,8	20,7	11,64
G'allani qayta ishlashda	3,7	1,8	2,7	1,9	2,8	3,1	2,58
Meva-sabzavotni qayta ishlashda	6,3	7,5	6,9	9,4	8,4	12,3	8,26
Suv tejoychi texnologiyalardan foydalanishda	17,5	23,0	76,2	112,8	47,11	25,2	40,02
Qishloq xo'jaligi texnikalari xaridida	15,5	12,3	14,6	13,6	17,8	13,9	14,52
Yer maydonlarini lazerli tekislashda	-	111,0	58,5	40,7	35,3	30,0	48,91
Paxta hosildorligida	5,8	8,7	7,6	6,4	0,3	1,2	3,10
G'alla hosildorligida	1,2	1,9	2,4	0,7	2,2	2,5	1,66

Tadqiqotimizda agrosanoat tizimida eng yuqori xissador hisoblangan to'qimachilik klasterlari faoliyatiga alohida e'tibor berildi. 2023-yil holatiga tola ishlab chiqarish, rejadan 36345 tonnaga ortiq, toladan ip-kalava ishlab chiqarish rejadan 34735 tonna kam, ip-kalavadan mato ishlab chiqarish 85760 tonna kam, matodan tayyor mahsulot ishlab chiqarish 109,2 ming tonnaga kamni tashkil etadi. Bundan, ko'rinadiki, viloyatda xom-ashyoni qayta ishlash darajasi rejalashtirilgan ko'rsatkichlardan ancha quyida qolmoqda. Bu esa tarmoqning rivojlantirish potensialidan unumli foydalanish zarurligini asoslaydi. Tadqiqotimiz jarayonida o'tkazilgan tahlil natijalari, paxta-to'qimachilik klaster korxonalarida moliyaviy resurslarning yetishmasligi natijasida ilmiy-tadqiqot va ishlanmalari sonining qisqarishiga, loyihalar va ishlanmalarning o'z vaqtida moliyalashmaganligiga olib kelgan. Paxta-to'qimachilik klasterlari laboratoriyalari texnologik jihatdan manaviy eskirgan. Malakali kadrlar yetishmasligi va boshqalar mavjud holatni yuzaga kelishiga asosiy omil sifatida baholanishiga asos bo'lmoqda. Bunda tarmoqning uchta asosiy bo'g'inlarida innovatsiyalarni keng ko'lamli joriy etish talab etiladi. Fikrimizcha, milliy innovatsion agrosanoat klasterlarni rag'batlantirish strategiyasini shakllantirish, joriy etish va natijaviylikka erishish energetika samadaorligini oshirish, qayta ishlash sanoatini innovatsion rivojlantirish, agrosanoat korxonalarini mahsulotlarini ichki va tashqi bozorga yetkazib berish tizimini takomillashtirish, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish manbalarini kengaytirish, chuqur integratsiyalashuv asosida xom ashyo, ishlab chiqarish, yetkazib berish, sotish tizimini joriy qilish va sog'lom raqobat muxitini shakllantirish kabi funksional yondoshuvlarning mukammal ijrosini ta'minlash imkoniyati bilan xarakterlanadi.


Mintaqada agrosanoat tizimini klasterlashtirish amaliyoti uning iqtisodiy-ijtimoiy salohiyatini oshirishga xizmat qilishi ustuvor vazifa bo'lishi zarur. Shundan kelib chiqib, agrosanoatini klasterlashtirish negizida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning sxematik tasnifi ishlab chiqildi (3-rasm).

¹¹ Qishloq xo'jaligi vazirligi va Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan



3-rasm. Agrosanoatni klasterlashtirish negizida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning sxematik tasnifi¹²

Fikrimizcha, istiqbolda agrosanoatni klasterli rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishda gibridd texnologiyalar asosiy rolga ega bo'radi. Bunda suniy intellekt (SI) asosida shakllantirilgan gibridd texnologiyalariga ustuvorlik beriladi.



4-rasm. Klasterni rivojlantirish mexanizmlarini gibridd texnologiyalar asosida takomillashtirish algoritmi¹³

¹² Manba: muallif ishlanmasi

¹³ Manba: Muallif ishlanmasi

Gibrid texnologiyalarning manbasi sifatida uchta, ya'ni soha mutaxassisleri, hisoblash texnikasi va SI dan iborat tizim tushsuniladi. Tadqiqotimizning bir qismi sifatida klasterlarni rivojlantirish mexanizmlarini gibrid texnologiyalar asosida takomillashtirish mohiyatini ochib berishga e'tibor qaratildi. Bu yerda murakkablikni bartaraf etish maqsadida tarmoqlanuvchi algoritm ishlab chiqildi (4-rasmda keltirilgan). Mazkur algortmik ketma-ketlikni quyidagicha izohlaymiz.

1. Ma'lumotlar tahlili. Klasterlarni rivojlantirishning boshlang'ich nuqtasi ma'lumot yig'ish va ularni tahlil qilishdan boshlanadi, chunki tahlil resurslar, imkoniyatlar va muammolar haqida aniq tasavvur beradi. Vazifasi klasterning imkoniyatlarini baholash va kuchli hamda zaif tomonlarni aniqlashdan iborat. Muhimligi esa tahlil qilingan ma'lumotlar keyingi barcha qarorlarni qabul qilish va resurslarni taqsimlash uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.


2. Resurslarni boshqarish. Tahlil natijalariga asoslangan holda mavjud resurslarni samarali boshqarish va taqsimlash amalga oshiriladi. Vazifasi turli resurslarning to'g'ri boshqarilishini ta'minlash, taqchilik va ortiqcha sarflanishining oldini olishdir. Muhimligi resurslarni optimal boshqarish klasterning samaradorligini oshirish va ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash uchun zarur.

3. Innovatsiyalarni rag'batlantirish. Resurslar boshqarilgandan keyin yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy qilish orqali samaradorlikni oshirishga qaratilgan choralar amalga oshiriladi. Vazifasi ilmiy ishlanmalar va ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayonlariga integratsiya qilish, mahsulot sifatini oshirish va ishlab chiqarishni ekologik barqaror qilishdan iborat. Muhimligi innovatsiyalar mahsulotlarning global bozorda talabga mos bo'lishini ta'minlaydi.

4. Monitoring qilish va baholash. Bu amalga oshirilgan ishlarning qanchalik muvaffaqiyatli ekanini tahlil qilish imkonini beradi. Vazifasi klaster jarayonlarining real vaqt rejimida monitoringi, qo'yilgan maqsadlar va erishilgan natijalarni taqqoslashdir. Muhimligi monitoring tizimi qaysi bosqichlarda muammolar yuzaga kelayotganini aniqlash va ularga o'z vaqtida javob berish imkonini beradi.

5. Bashoratlash. Tizimning barcha bo'g'inlari tahlil qilinib, monitoring natijalariga asoslangan holda kelajakdagi strategiyalarni shakllantirish uchun bashorat qilinadi. Vazifasi turli dinamikalarni prognoz qilish, risklarni aniqlash va ularga tayyorgarlik ko'rishdan iborat. Muhimligi samarali qarorlarni qabul qilish va uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashdan iborat.

Mazkur algoritm bo'yicha gibrid texnologiyalar asosida takomillashtirilgan mintaqa agrosanoatini tarmoqlar va hududlararo klasterli rivojlantirish mexanizimi iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik jihatdan quyidagicha xarakter kasb etadi. Jumladan, gibrid texnologiyalar asosida agrosanoatni hududlararo va tarmoqlararo klasterlar orqali rivojlantirish – bu iqtisodiy jihatdan: eksport salohiyatini oshirish, tannarxni kamaytirish va barqaror daromad manbai, ijtimoiy jihatdan: bandlik, turmush darajasi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash vositasi, texnologik jihatdan: ilg'or innovatsiyalarni joriy qilish, raqamlashtirish va energiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Gibrid texnologiyalar turli texnologik yechimlarning kombinatsiyasi bo'lib, ular agrosanoat tizimidagi mexanizmlarning turli bo'g'inlarida faol ishtirok etadi (5-rasm).



5-rasm. Gibrid texnologiyalar asosida takomillashtirilgan agrosanoatni klasterli rivojlantirish mexanizmining sxemasi¹⁴

Gibrid texnologiyalarning agrosanoatni klasterli rivojlantirishning iqtisodiy mexanizm bo'g'inlarida ishtiroki natijasida avtomatlashtirilgan texnikalar, agrodronlar, GPS bilan boshqariladigan texnika yoqilg'i, ishchi kuchi va vaqtni tejaydi. IoT sensorlari va AI orqali yer, suv, urug', o'g'it optimallashtiriladi – bu hosildorlikni oshiradi. Raqamli platformalar orqali real vaqt monitoring, mahsulot oqimini rejalashtirish imkoni paydo bo'ladi. Ilg'or texnologiyalar investitsiyaviy jozibadorlikni oshiradi, texnologik risklarni kamaytiradi.

Gibrid texnologiyalarning agrosanoatni klasterli rivojlantirishning ijtimoiy mexanizm bo'g'inlarida ishtiroki natijasida texnik xizmat ko'rsatish, dron operatorlari, IT agronomlar kabi yangi kasblar shakllanadi, texnologik yangiliklar ta'lim va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirishini rag'batlantiradi, texnologik yondashuvlar qishloq xo'jaligida barqaror daromad manbalarini yaratadi. Raqamli platformalar ayollar va yoshlar uchun imkoniyatlarni kengaytiradi.

Gibrid texnologiyalarning agrosanoatni klasterli rivojlantirishning texnologik mexanizm bo'g'inlarida ishtiroki natijasida gibrid energiyali traktor, kombayn, sug'orish tizimlari energiya tejamkorlikni oshiradi, sun'iy intellekt, IoT, GPS, GIS orqali aniq agrotexnik chora-tadbirlar belgilanadi. Mahsulotni yetishtirishdan tortib, qayta ishlash, qadoqlash va sotuvgacha yagona texnologik zanjir hosil qiladi. Klasterlar ichida axborot oqimini boshqarish, kuzatish tizimi yaratadi.

¹⁴ Muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan

Gibrid texnologiyalar agrosanoat klasterlarini rivojlantirishda ilgari passiv bo'lgan jarayonlarni faollashtiradi, ularni tizim ichida faol, barqaror va sinergik holatga olib keladi. Xususan, gibrid texnologiya orqali quyidagi iqtisodiy jarayonlar faollashadi:

- IoT sensorlar, dronlar, aqlli sug'orish tizimlari resurslardan maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlaydi;

- gibrid texnologiyalar (avtomatik saralash, sovutish, qadoqlash texnologiyalari) klaster ichidagi qo'shimcha qiymat zanjirini faollashtiradi;

- raqamli platformalar va AI asosidagi prognozlar orqali fermerlar va klaster ishtirokchilari bozordagi o'zgarishlarga moslashadi;

- resurs taqsimoti va investitsiyalar aniq rejalashtiriladi.

Gibrid texnologiya orqali quyidagi ijtimoiy jarayonlar faollashadi:

- distant ta'lim, virtual treninglar, agro-simulyatorlar orqali zamonaviy bilimlar beriladi;

- Masofadan boshqariladigan texnologiyalar va onlayn savdo platformalari ijtimoiy inklyuziyani oshiradi;

- texnologik xizmatlar tarmog'i (tech-support, agro-servis) orqali innovatsion madaniyat shakllanadi;

- klaster platformasi doirasida hududlararo hamkorlik loyihalari shakllanadi (kooperatsiya, ilmiy almashinuv).

Gibrid texnologiya orqali quyidagi texnologik jarayonlar faollashadi:

- gibrid energiyali texnikalar (elektrotraktorlar, avtomatlashtirilgan kombaynlar) ishlab chiqarishga jalb qilinadi;

- yagona axborot platformalari yordamida zanjirning barcha bo'g'inlari bog'lanadi, sovutish zanjiri, smart logistika tizimlari (IoT bilan integratsiyalashgan) ishlab chiqiladi;

Fikrimizcha, agrosanoatni klasterli rivojlantirish mexanizmini gibrid texnologiyalar asosida takomillashtirishning eng muhim jihati ishlab chiqarish, qayta ishlash va logistika zanjirlarini yagona tizimda birlashtirish orqali samaradorlikni oshirishdir. Bunda klaster ichidagi ishtirokchilar o'rtasidagi kooperatsiya kuchayadi, resurslardan foydalanish optimallashtiriladi hamda bozor talabiga moslashuvchanlik ortadi. Eksport salohiyatini kengaytirish, investitsiya jalb qilish va qishloq joylarda bandlikni ta'minlash imkonini beradi.

Dissertatsiyaning **“Mintaqa agrosanoatida hududlararo klasterlashning istiqbolli yo'nalishlari”** deb, nomlangan uchunchi bobida, agrosanoatni hududlararo klasterlashtirish sinergiyasi asosida mintaqani iqtisodiy rivojlantirish imkoniyatlari va ustuvor yo'nalishlari asoslandi. Hududlararo va tarmoqlararo klasterlash mexanizmlari takomillashtirish bo'yicha agrosanoat korxonalarini hududlararo subklasterlashtirish asosida rivojlantirishning sxematik tasnifi hamda FRM (Five Ring Model) klaster modeli ishlab chiqildi. Modelda strategik belgilar ilmiy tavsiflandi hamda subklasterlar asosida rivojlanuvchi agrosanoat klasterlarining mintaqa iqtisodiy potensialiga ta'sir etish mexanizmi takomillashtirildi. Klasterlashtirilgan mintaqa agrosanoatini rivojlantirishning ishonchli prognoz parametrlarini hisoblab chiqish asosida istiqboldagi o'zgarishlar baholandi.

Tadqiqotimiz jarayonida nazariy-amaliy o'rganishlarimizdan kelib chiqib,

hududlarni klasterlashtirish amaliyotining samaradorligini o'lchash mumkin bo'lishligi uchun ma'lum bir mezonlar joriy qilingan bo'lishi kerak deb hisoblaymiz. Bizning holda mintaqa agrosanoatini rivojlantirishda hududlararo klasterlashtirish amaliyoti umumiy rivojlanish sinergiyasini hosil qilgandagina samarador deyish mumkin. Sababi shundaki, hududning iqtisodiy rivojlanishi bir qancha tizimlashgan va tizimlashmagan masalalarning yechimi bilan bog'liq. Buning uchun dinamik xususiyatga ega agro-iqtisodiy mezonlarni o'zida mujassamlashtirilgan ma'lum bir ko'rsatkichlar tizimini tanlab olindi: A_t – Qashqadaryo viloyati shahar va tumanlarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi, mlrd so'mda; B_t – Qashqadaryo mintaqasi shahar va tumanlarida aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan iste'mol mollari, ming so'mda; C_t – Qashqadaryo viloyati shahar va tumanlarida agroklastlar tomonidan yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsuloti, mlrd so'mda; D_t – mintaqada qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida dehqonchilik mahsulotlari ulushi, foizda; E_t – To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd so'mda; F_t – Mintaqa tarkibiy hududlarining lokallashtirish koeffitsiyenti, nisbat; Z_t – Mintaqa shahar va tumanlarida nisbiy ishlab chiqarish unumdorligi nisbati, nisbat; H_t – Mintaqa shahar va tumanlarida ovlangan baliqlar, tonna.

Bu yerda parametrlar t indeksi so'ngi uch yillik, ya'ni 2021-2023 yillarni qabul qiladi. Mintaqaning tarkibiy hududlari bo'yicha parametrlarning o'rtacha qiymatda ko'rsatkichlari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval.

Qashqadaryo viloyati agrosanoati tizimida shahar va tumanlarini klasterlashtirish salohiyati ko'rsatkichlarining o'rtacha miqdorlari¹⁵

Belgi	A	B	C	D	E	F	Z	H
QSH	227,667	3388,822	102,567	50,673	391,063	0,211	0,538	7,167
SHSH	265,800	2243,754	10,256	48,707	104,387	6,667	2,876	0,500
GT	2045,200	786,755	369,104	33,060	887,556	3,015	1,840	131,500
DT	1352,533	678,623	0,000	12,007	202,723	9,261	2,315	13,333
QMT	2947,100	687,771	714,399	40,170	225,903	7,892	4,219	95,200
QRT	2676,833	747,941	646,513	46,237	444,721	5,530	3,711	254,667
KST	3190,400	1062,169	801,143	50,400	280,543	7,257	2,970	125,133
KTB	2741,100	710,194	582,559	42,927	354,401	7,695	3,926	238,800
MRT	2223,867	1312,570	539,325	56,020	88,993	10,970	2,906	1006,967
MBT	1630,733	1536,288	394,388	32,730	96,640	9,825	3,113	79,533
NT	2347,833	821,916	569,869	50,100	1503,899	1,718	1,285	1680,033
KBT	2972,467	1158,732	721,179	49,517	368,812	6,331	2,587	60,167
KDT	1261,900	383,105	182,695	21,463	22,832	14,440	1,877	0,000
CHT	2648,800	1129,624	544,753	37,070	67,517	10,400	4,205	423,900
SHT	2057,800	1192,262	511,629	36,243	428,199	10,213	3,893	277,100
YAT	2402,933	1216,548	600,952	35,590	338,732	8,363	3,400	865,000

Bu yerda shartli belgilar: 1:QSH-Qarshi shahri, 2:SHSH-Shahrisabz shahri, 3:GT-G'uzoor tumani, 4:DT-Dehqonobod tumani, 5:QMT-Qamashi tumani, 6:QRT-

¹⁵ Muallif ishlanmasi. Manba: <https://www.qashstat.uz/uz/>

Qarshi tumani, 7:KST-Kososn tumani, 8:KTB-Kitob tumani, 9:MRT-Mirishkor tumani, 10:MBT-Muborak yumani, 11:NT-Nishon tumani, 12:KBT-Kasbi tumani, 13:KDT-Ko'kdala tumani, 14:CHT-Chiroqchi tumani, 15:SHT-Shahrisabz tumani, 16:YAT-Yakkabog' tumani.

Ushbu ko'rsatkichlar tizimida Qashqadaryo viloyati hududlari klaster salohiyatiga ko'ra guruhlarga ajratildi. Bunda, K-o'rtacha algoritmining kirish qadami Chebishev taqsimoti jadvalining miqdoriy elementlarini hisoblash uchun eng universal baholash mezonlaridan biri Calinsk-Xarabasz mezonidan foydalanildi. Natijada, K-o'rtacha usuli bo'yicha 4 ta, ierarxik guruglash bo'yicha 8 ta klasterli guruhlar hosil bo'ldi. Ushbu guruhlash natijalari asosida Qashqadaryo viloyati mintaqalarida agrosanoat klasterlarning shakllanishi va rivojlanishining miqdoriy ko'rsatkichlariga asoslangan "lider" guruh hosil qilgan sinerjiyani hudud miqyosida samarali taqsimlash mezonlari ishlab chiqildi. Buning uchun klasterda ishtirok etuvchi agrosanoat korxonlarining hududiy zichligi (HZ), agrosanoat samaradorligi (AS), innovatsion faollik (IF) va mahsulot (xizmat)lar eksporti (ES) ko'rsatkichlari asosida hududlarda rivojlanish parametrlari 2 ta ssenariy bo'yicha hisoblab chiqildi (6-jadval).


3-jadval

Qashqadaryo viloyati mintaqalarida agrosanoat klasterlarning shakllanishi va rivojlanish ko'rsatkichlari (klasterlar kesimida)¹⁶

Klasterlar	HZ	AS	IF	ES
1-ssenariy (ierarxik guruglash usulida)	Sinerjiyaning umumiy oqimini			
1-klaster	0,00032	1,23848	0,12402	0,17000
2-klaster	0,00021	1,24100	0,10237	0,14500
3-klaster	0,00032	1,21418	0,12459	0,16333
4-klaster	0,00020	1,07547	0,09987	0,12000
5-klaster	0,00237	1,09142	0,03247	0,07500
6-klaster	0,00017	1,01262	0,03332	0,11000
7-klaster	0,00160	0,97273	0,04786	0,05000
8-klaster	0,00641	1,00712	0,11435	0,09000
2-ssenariy (K-o'rtacha usulida)	Sinerjiyaning asosiy oqimini			
1-klaster	0,003946	1,004843	0,096107	0,07
2-klaster	0,00017	1,01262	0,033322	0,11
3-klaster	0,0002701	1,214373	0,109449	0,155
4-klaster	0,002633	0,956718	0,029764	0,036667

K-o'rtacha usulida guruhlangan 3-klaster taqqoslanayotgan barcha ko'rsatkichlar bo'yicha ustuvorlik kasb etgan. Asosiy oqimda o'sish sur'ati agrosanoat samaradorligi bo'yicha 7,7 foizga; innovatsion faollik bo'yicha 24,3 foizga, mahsulot (xizmat)lar eksporti bo'yicha 29,8 foizga teng. Ushbu ustuvorlik jihatni hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirishga yo'naltirish sinerjiyaning asosiy oqimini optimal yo'naltirish masalasi sifatida ko'rib chiqildi. Bu yerda hududlararo tashkil topgan har bir klasterlarning sinergetik quvvatini vazn ko'rsatkichlarida ifoda etish yordamida sinerjiya oqimining quyi ($w_L = 0,329$) va yuqori ($w_U = 0,547$) vazn koeffitsiyentlari oralig'idagi hududlarning ($w_{opt} = 0,493$) vazn ko'rsatkichli sinergetik quvvatidan foydalanish mezonlari taklif etildi (6-rasm).

¹⁶ Muallif tomonidan hisoblab chiqilgan



6-rasm. Qashqadaryo viloyati agrosanoatining klasterli salohiyati asosida sinergiyani yaratish oqimi¹⁷

Bu yerda sinergiya oqimining quyi va yuqori vazn koeffitsiyentlari chegarasi hududlararo klasterlarning dastlabki guruhlanmagan holdagi mos ravishda eng kichik va eng katta qiymatlari, mezon ko'rsatkichi (optimal qiymat) esa, "lider" guruhlarning umumiy potensial ko'rsatkichiga nisbatan olingan. Shunday qilib mintaqada agroklastlar tomonidan to'plangan sinergeyaning miqdoriy o'lchovi normallangan holda 0,493 koeffitsiyentga mos kelmoqda. Mazkur mezon o'lchovi mintaqada agrosanoati samaradorligini oshirishning hududlararo ustuvor yo'nalishlarini asoslashga xizmat qiladi. Tadqiqotimizda, dinamik xususiyatga ega agro-iqtisodiy mezonlarni o'zida mujassamlashtirilgan Qashqadaryo viloyati shahar va tumanlarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi, aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan iste'mol mollari, agroklastlar tomonidan yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsuloti, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida dehqonchilik mahsulotlari ulushi, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibiy hududlarining lokallashtirish koeffitsiyenti, ishlab chiqarish unumdorligi, ovlangan baliqlar massasidan iborat ko'rsatkichlar tizimi, hamda mintaqada agrosanoat samaradorligi integral ko'rsatkichi, innovatsion faollikning, ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmatlar eksporti integral ko'rsatkichlari asosida, hamda mintaqada agrosanoatining klasterli salohiyatidan rivojlantirish sinergiyani yaratish oqimining tahliliy natijalariga tayanib, mintaqada agrosanoat samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari belgilandi (4-jadval).


¹⁷ Manba: muallif ishlanmasi

Qashqadaryo viloyatida klasterlashtirilgan agrosanoati samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari¹⁸

Hududlar	Sinergiyada tarkibiy ulush darajasi	Ustuvor yo'nalishlar mazmuni
Qarshi shahri	o'rtacha	Kichik va o'rta biznesdagi xo'jalik yurituvchi subyektlarni klasterlashga jalb qilish. Agrosanoat klasterlari faoliyati ko'rsatkichlari tarkibida kichik va o'rta biznes ulushini oshirish. Agrosanoat klasterlari tizimida smart xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish. To'qimachilik va yengil sanoatida qayta ishlash tizimini texnologik rag'batlantirish
Shahrisabz shahri	o'rtacha	Turizim tarmog'i tarkibida agroturizmni rivojlantirish. Meva-sabzavotlarni qayta ishlash sanoati tizimini texnologik yangilash. Agrosanoat klasterlari tizimida sutni qayta ishlash tarmog'ini kengaytirish negizida chakana savdoni jadal rivojlantirish
Guzor tumani	o'rtacha	Agrosanoat klasterlari tizimida aqlli qishloq xo'jaligini joriy etish. Go'sht va sut mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlashga chuqur ixtisoslashish, klasterlashgan agrosanoatni rivojlantirishda neft-gaz sanoati salohiyatidan samari foydalanish va eksport hajmini oshirish
Dehqonobod tumani	past	Agrosanoat klasterlari tizimida adirlik bog'dorchiligini rivojlantirish. Dorivor o'simliklarni yetishtirishga chuqur ixtisoslashish. Go'sht va junni qayta ishlash faoliyatini yo'lga qo'yish
Qamashi tumani	yuqori	Agrosanoat klasterlari tizimida paxta va g'allani qayta ishlash sanoatini rivojlantirish. To'qimachilik klasterlarining investetsion salohiyatini oshirish. Parrandachilik va baliqchilik xo'jaliklari negizida soxaviy klasterlarni tashkil etish. Sabzavotlarni qayta ishlash tizimini faollashtirish
Qarshi tumani	yuqori	Agrosanoat klasterlari tizimida issiqxona xo'jaliklarini tashkil etishni jadallashtirish. To'qimachilik va yengil sanoatga ixtisoslashgan klasterlarini rivojlantirish. Hududning investitsiya taqsimotida yengil sanoat ulushini oshirish
Kososn tumani	yuqori	Agrosanoat klasterlari tizimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish. Paxta va g'allani qayta ishlash sanoatini kengaytirish. Oziq-ovqat ishlab chiqarishni texnologik jihatdan keying bosqichga olib chiqish
Kitob tumani	yuqori	Mevani qayta ishlash sanoatini kengaytirish. Agrosanoat klasteri negizida bog'dorchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni rag'batlantirish. Uzun yetishtirish va uzumni qayta ishlash innovatsiyalarini keng joriy qilish. Ichimliklar ishlab chiqarishni jadallashtirish
Mirishkor tumani	o'rtacha	Agrosanoat klasterlarining qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini va paxtani qayta ishlash quvvatini oshirish. Yengil sanoatning keyingi bosqichlarida ixtisoslashtirish. Go'sht mahsulotlarini qayta ishlashni rivojlantirish
Muborak tumani	past	Agrosanoat klasterlari tizimida qishloq xo'jaligida xizmat ko'rsatishni rivojlantirish. Klasterlashgan agrosanoatni rivojlantirishda neft-gaz sanoati salohiyatidan foydalanib investitsiya samaradorligini oshirish
Nishon tumani	o'rtacha	To'qimachilik klasterlarining mahsulot ishlab chiqarishda ko'p bosqichli vertikkallashgan faoliyatini tashkil etish. Agrosanoat klasteri negizida baliqchilik xo'jaliklarini rivojlantirish. Baliq yetishtirish hajmini oshirish va qayta ishlangan baliq mahsulotlari ishlab chiqarish
Kasbi tumani	yuqori	Agroklasterlarning innovatsion faolligini oshirish. Klasterlash tizimi asosida smart qishloq xo'jaligini rivojlantirish. Agroturizmni rivojlantirish va meva-sabzavotlarni qayta ishlash sanoatini rivojlantirish
Ko'kdala tumani	past	Poliz ekinlari eksportini va klasterlar tizimida go'sht mahsulotlari hajmini oshirish. Terini qayta ishlash sanoatini rivojlantirish. Investetsion manbalarni kengaytirish asosida agroklasterlarning investetsion salohiyatini oshirish.
Chiroqchi tumani	o'rtacha	Agrosanoatni klasterlashtirish negizida chorvachilik mahsuldorligini oshirish. Go'st yetishtirish hajmini oshirish. Qayta ishlangan go'sht va sut mahsulotlarini, ichimliklar ishlab chiqarishni jadallashtirish
Shahrisabz tumani	yuqori	Klasterlashtirish negizida agroturizmni rivojlantirish. Meva-sabzavotlar yetishtirishga ixtisoslashuv va ularni qayta ishlash hajmini oshirish. Sutni qayta ishlash tizimini texnologik yangilash. Eksport salohiyati imkoniyatlarini yanada kengaytirish. Ichimliklar ishlab chiqarishni texnologik yangilash
Yakkabog' tumani	yuqori	Meva-sabzavotlar yetishtirishga ixtisoslashuv va ularni qayta ishlash hajmini oshirish. Sutni qayta ishlash tizimini texnologik yangilash. Yengil sanoat tarmoqlarini kengaytirish. Agrosanoat klasterlarining investetsion salohiyatini oshirish
Qashqadaryo viloyatida	Lider hududlar salohiyati	Agrosanoat klasterlari tizimida smart xizmat ko'rsatish sohasini va qishloq xo'jaligini rivojlantirish. Kichik va o'rta biznesdagi xo'jalik yurituvchi subyektlarni klasterlashga jalb qilish. Turizim tarmog'i tarkibida agroturizmni rivojlantirish. Mahsulot yetishtirish, qayta ishlashga ixtisoslashuv. Agroklasterlarning qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushini oshirish, qayta ishlash quvvatlarini, hajmini va texnologik darajasini oshirish. Investetsion va eksport salohiyatini oshirish

¹⁸ Manba: Tadqiqot natijalari sifatida muallifning takliflari asosida tuzilgan

Agrosanoat klasterlarini gibrid texnologiyalar asosida subklasterlarli rivojlantirish mexanizmining har bir bo‘g‘inida takomillashtirish belgilari mavjud bo‘lib, bu FRM (Five Ring Model) klaster modelini tashkil etadi (7-rasm).



7- rasm. Agrosanoatni rivojlantirish mexanizmini takomillashtirishning FRM klaster modeli¹⁹

Bu yerda jami 28 ta strategik belgilar 5 ta halqaga birlashgan holda rivojlanuvchi tizim hosil qiladi.

Mintaqada FRM klaster modelining besh halqasi (bo‘g‘ini)ga tegishli 28 ta strategik belgilarni amalga oshirish agrosanoatni klasterlashtirish mexanizmining besh bo‘ginli takomillashtirish amaliyotini ifoda etadi. Demak,

- agrosanoat klasterlarini subklasterlarli kengaytirish negizida rivojlantirish mexanizmining “ma’lumotlar tahlili” bo‘g‘inini 6 ta strategik belgilariga ko‘ra takomillashtirish agroklasterni tizimining samaradorligini oshiradi, resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi va mahsulot sifatini nazorat qilishni yaxshilaydi;

- mexanizmning “resurslarni boshqarish” bo‘g‘inini 5 ta strategik belgilariga ko‘ra takomillashtirish agroklasterni barqaror rivojlanishni ta’minlash uchun muhimdir. Bu yondashuv tuproq, suv, energiya va boshqa resurslarni samarali boshqarish asosida tarmoqning iqtisodiy o‘shishini ta’minlaydi;

- mexanizmning “innovatsiyalarni rag‘batlantirish” bo‘g‘inini 4 ta strategik belgilariga ko‘ra takomillashtirish innovatsion jarayonlarni tizimli ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi va yuqori texnologiyali raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi;

- mexanizmning “monitoring va baholash” bo‘g‘inini 7 ta strategik belgilariga ko‘ra takomillashtirish jarayonlarni real vaqt rejimida kuzatish, xatarlarni boshqarish va samaradorlikni oshirish bo‘yicha ma’lumotli qarorlar qabul qilish imkoniyati

¹⁹ Manba: muallif ishlanmasi

yaratiladi. Raqamli va avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish monitoring va baholash jarayonlarini yanada tez va ishonchli qiladi;

- mexanizmning “bashoratlash” bo‘g‘inini 6 ta strategik belgilariga ko‘ra takomillashtirish orqali agroklastarlarda strategik rejalashtirish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va bozor talablariga moslashuvchanlikni ta‘minlaydi.

Klasterlashtirilgan mintaqa agrosanoati uning iqtisodiy indikatorlarig ta‘sirini baholash va prognozlashtirish uchun tizimning asosiy ko‘rsatkichlari sifatida quyidagilar tanlab olindi va modellashtirildi (5-jadval).

5-jadval.

Qashqadaryo viloyatida klasterlashtirilgan agrosanoat tizimining iqtisodiy ko‘rsatkichlari va modellari²⁰

Ko‘rsatkichlar	Model
MPH – mintaqada paxta hosildorligi, s/ga;	$MPH_t = 25,369 + 0,742 \cdot MPH_{t-1} - \omega_t + 0,00012 \cdot MSTT_{t-1}, R^2 = 0,93$ (z;p) (92,64; < 0,01) (4,15; < 0,01) (-8,62; < 0,01) (3,72; < 0,01)
MG‘H-mintaqada g‘alla hosildorligi, s/ga;	$MGH_t = 9,482174 + 0,882427 \cdot MGH_{t-1}, R^2 = 0,96$ (z;p) (9,13; < 0,01) (9,75; < 0,01)
MTICH - mintaqada to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so‘m	$MTICH = 3,4189 \cdot MLXK + 120,6334 \cdot MChFU - 98,5445, R^2 = 0,99$ (t;p) (22,11; < 0,01) (4,70; < 0,01) (-2,51; 0,02)
MOOICH - mintaqada oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so‘m	$MOOICH = 0,3681695 \cdot MQIMS^{0,70383} \cdot QO^{0,40773}, R^2 = 0,98$ (t;p) (-2,60; < 0,017) (19,63; < 0,001) (7,76; < 0,001)
MQIMS – mintaqada qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlari, tonna	$\ln(MQIMS) = 9,9175 + 0,0739 \cdot t, R^2 = 0,98$ (t;p) (361,3; < 0,01) (36,9; < 0,01)
MQIG – mintaqada qayta ishlangan go‘sh mahsulotlari, tonna	$MQIG = 5358,153 + 63,10151 \cdot t^2, R^2 = 0,93$ (t;p) (7,1; < 0,01) (20,86; < 0,01)
MQXM – mintaqada ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi, mlrd so‘m	$MQXM = 772,7 + 2,5 \cdot MTICH + 3,75 \cdot MQXIM + 0,034 \cdot MQIG - 2984,3 \cdot NRK$ (t;p) (10,3; < 0,01) (5,2; < 0,01) (10,1; < 0,01) (4,8; < 0,01) (-7,4; < 0,01) $R^2 = 0,99$
MQXIM – mintaq qishloq xo‘jaligi tizimida innovatsion mahsulotlar hajmi, mlrd so‘m	$MQXIM = 278,02339 + 12,75006 \cdot t + 0,97679 \cdot t^2, R^2 = 0,99$ (t;p) (44,49; < 0,01) (10,63; < 0,01) (20,13; < 0,01)
MChFU - mintaq chorvachilik mahsuloti ishlab chiqarishning tarkibida fermer xo‘jaligining ulushi, foizda	$MChFU_t = 2,70924 + 0,945807 \cdot MChFU_{t-1} + 0,7473 \cdot \omega_{t-1}, R^2 = 0,93$ (z;p) (3,38; < 0,01) (14,25; < 0,01) (6,11; < 0,01)
MSTT - mintaqada suv tejoychi texnologiyalar joriy qilingan yer maydoni, ga	$\ln(MSTT) = 7,283725 + 0,310375 \cdot t, R^2 = 0,91$ (t;p) (15,99; < 0,001) (4,62; 0,001)
MLXK - mintaqada logistik xizmat ko‘rsatish hajmi, mlrd so‘m	$MLXK = 0,8607 \cdot t^2 - 9,3426 \cdot t + 86,917, R^2 = 0,98$ (t;p) (13,01; < 0,01) (-5,71; < 0,01) (10,2; < 0,01)
NRK – mintaq qishloq xo‘jaligining noorganik rivojlanish koeffitsiyenti	$NRK = 0,445087 - 0,04784 \cdot t + 0,004408 \cdot t^2, R^2 = 0,98$ (t;p) (11,1; < 0,01) (-6,8; < 0,01) (15,7; < 0,01)

Prognozlashtirish natijalariga ko‘ra, Qashqadaryo viloyati agrosanoatini klasterlashtirish asosida paxta hosildorligi 2023-yilga nisbatan 2029-yilga borib 1,33 barobarga oshib, keyingi besh yillikda o‘rtacha o‘shish sur‘ati 5,3 foizni tashkil etadi, g‘alla hosildorligi o‘rtacha 5,3 foiz o‘shish sur‘atiga ega bo‘lib, 2029-yilda 2023-yilga nisbatan 1,2 barobarga oshishi ta‘minlanadi. Agroklastarlar tomonidan suv tejoychi texnologiyalar joriy qilingan yer maydoni o‘rtacha 10,2 foiz o‘shish sur‘atiga ega bo‘lib, 2029-yilda 2023-yilga nisbatan 2,02 barobarga oshadi (6-jadval).

²⁰ Manba: Tadqiqot natijalari sifatida muallifning takliflari asosida tuzilgan

**Qashqadaryo viloyatida klasterlashtirilgan agrosanoat tizimini
rivojlantirishning prognoz parametrlari²¹**

Prognoz yillari	Paxta hosildorligi, s/ga	G'alla hosildorligi, s/ga	Klaster tizimida suv tejoychi texnologiyalar joriy qilingan yer maydoni, ga	To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm	Logistik xizmat ko'rsatish hajmi, mln. so'm	Chorvachilik mahsuloti ishlab chiqarish tarkibida fermer xo'jaligining ulushi, foizda
	<i>MPH</i>	<i>MGH</i>	<i>MSTT</i>	<i>MTIch</i>	<i>MLXK</i>	<i>MChFU</i>
2025	34,75	65,58	38649,49	1695,778	394,290	5,37
2026	36,17	67,35	43047,70	1897,295	428,843	5,93
2027	37,98	68,92	47591,07	2082,983	465,117	6,91
2028	40,19	70,30	52274,23	2325,223	503,113	7,72
2029	42,36	71,51	57092,34	2552,841	542,830	8,78
2029/2023 nisbat	1,33	1,2	2,02	1,74	1,52	2,19
O'rtacha o'sish, %	5,3	2,6	10,2	10,7	8,5	13,6
Prognoz yillari	Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm	Qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlari, tonna	Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm	Qayta ishlangan go'sht mahsulotlari, tonna	Qishloq xo'jaligi tizimida innovatsion mahsulotlar hajmi, mlrd. so'm	Qishloq xo'jaligining noorganik rivojlanish koeffitsiyenti
	<i>MOOICH</i>	<i>MQIMS</i>	<i>MQXM</i>	<i>MQIG</i>	<i>MQXIM</i>	<i>NRK</i>
2025	2588,68	130612,31	5019,850	39484,1	1207,269219	2,00382964
2026	2831,78	142185,77	5203,485	42268,77	1269,835607	2,18077872
2027	3075,06	153244,61	5453,524	45162,65	1334,355576	2,36654314
2028	3321,50	168500,10	5829,683	48165,74	1400,829126	2,56112289
2029	3639,79	181293,78	6154,008	51278,02	1469,256257	2,76451798
2029/2023 nisbat	1,74	1,74	1,33	1,49	1,36	1,51
O'rtacha o'sish, %	10,6	10,3	5,0	6,9	5,1	8,5

Qashqadaryo viloyati agrosanoatini klasterlashtirish negizida logistik xizmat ko'rsatish hajmi keyingi besh yillikda o'rtacha 8,5 foiz o'sish sur'tiga ega bo'lb, 2029-yilda 2023-yilga nisbatan 1,52 barobarga, chorvachilik mahsuloti ishlab chiqarishning tarkibida fermer xo'jaligining ulushi 2,19 barobarga, to'qimachilik sanoati mahsulot ishlab chiqarish hajmi 1,74 barobarga ortadi. 2029-yilda 2023-yilga nisbatan 1,74 barobar ortiq meva-sabzavot mahsulotlari qayta ishlanadi va o'rtacha o'sish darajasi 10,3 foizni tashkil etadi. Qayta ishlangan go'sht mahsulotlari keyingi besh yillikda o'rta hisobda 6,9 foizga o'sib, 2029-yilda 51278,02 tonnaga yetishi, tizimida innovatsion mahsulotlar hajmi 1,36 barobarga ortishi ta'minlanadi.

Qashqadaryo viloyatida agrosanoatini klasterli rivojlantirish asosida qishloq xo'jalik mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi keyingi besh yillikda 1,33 barobarga ortadi. O'rtacha o'sish sur'ati 5 foizni tashkil etadi.

²¹ Manba: Muallif tomonidan tuzilgan

XULOSA

Mavzu bo'yicha tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Klasterlashtirish nazariyasida raqobatbardoshlik, samaradorlik, rivojlanishdagi uzluksizlik, integratsiyalash tamoyillarining mintaqa, tarmoq, iqtisodiy sharoitga ko'ra mohiyati o'zgarib bormaydi, biroq dinamik reallikda omillar o'zgaruvchan, talablar va mezonlar sobit bo'lmayligi mumkin. Natijada, klassik nazariya yangi tushunchalarni qabul qilish asosida kengayib boradi. Hozirda klaster nazariyasi rivojida innovatsion omillar, intensivlik talablari, ekologik samaradorlik, optimallik mezonlari, strategik yondoshuvlarga katta e'tibor berilmoqda;

2. Mintaqada agrosanoatni klasterlashtirishning eng samarador amaliyoti operativ tadqiqot, tashxislash, xususiyatlash, tizimlash usullarini, innovatsion, smart texnologiyalarni, intensivlik, optimallik tamoyillarini, strategik rejalashtirishni, rivojlanuvchi, ochiq mexanizmlarni joriy etishni va nomoddiy aktivlar, jumladan intellektual kapitalga ega bo'lishni taqozo etadi;

3. Qashqadaryo viloyatida klasterlar uchun yangi bozorlar topishda ilg'or xorij tajribasidan kelib chiqib marketingning 4P modelini joriy etish, differensial, fokusli, raqamli marketing amaliyotini kuchaytirish yuqori samara beradi;

4. Mintaqada paxta-to'qimachilik klasterlari salohiyatini inobatga olganda, ulardagi asoiy muammolar sifatida investitsiyalash tizimini takomillashtirish, moliyaviy resurslar boshqaruvini optimallashtirish, texnologik yangilash, tarmoqda kadrlar malakasini oshirishga katta e'tibor berish va milliy innovatsion agrosanoat klasterlari faoliyatini yo'lga qo'yish zarur;

5. Qashqadaryo mintaqasida qayta ishlash korxonalari sonini oshirish va faoliyatini kengaytirish tizimida meva-sabzavotlarni konservalash, sutni qayta ishlash, donni qayta ishlash, go'sht mahsulotlarini qayta ishlash, ikkilamchi xom-ashyolarni qayta ishlash ko'lamini oshirish, jarayonda korxonalarini texnik, texnologik ta'minotini intensiv amalga oshirish, malakalali kadrlarni rag'batlantirish, investitsiya jozibadorligini ta'minlashda liberallik tamoyillariga rioya etish, innovatsiyalarni joriy etishni moliyalashtirishning davlat va xususiy sektor hamkorligini yanada rivojlantirish kerak;

6. Agrosanoat klasterlarini rivojlantirish mexanizmining "Ma'lumotlar tahlili", "Resurslarni boshqarish", "Innovatsiyalarni rag'batlantirish", "Monitoring qilish va baholash" hamda "Bashoratlash" bo'g'indan iborat ketma-ketligi tizimning mantiqiy oqimini aks ettiradi. Bu yondashuv klasterlarni rivojlantirish jarayonining izchilligi va barqarorligini ta'minlaydi;

7. Qashqadaryo viloyati agrosanoat klasterlari salohiyatini mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida asosiy omillardan biri sifatida ular hosil qilgan sinergiya moddiy va nomoddiy aktivlarning birgalikda va birvaqtda jamlanishi bilan juda ahamiyatlidir. Bu esa klasterlashtirish siyosatining to'g'ri yo'nalishda borayotganligini asoslaydi. Mazkur sinergiya oqimini to'g'ri yo'naltirish asosida agrosanoat samaradorligini, innovatsion faolligini, eksport salohiyatini oshirishga erishish mumkin;

8. Agrosanoat klasterlarini rivojlantirish mexanizmini gibridd texnologiyalar asosida takomillashtirishda FRM klaster modelidan foydalanish maqsadga muvofiq

bo‘ladi. Bu algoritmik modelda “ma’lumotlar tahlili”, “resurslarni boshqarish”, “innovatsiyalarni rag‘batlantirish”, “monitoring qilish va baholash”, “bashoratlash” bo‘g‘inlari bo‘yicha 28 ta takomillashtirish belgilarining amaliyotda namoyon bo‘lishi iqtisodiy ko‘rsatkichlarni optimistik prognoz parametrlariga yaqinlashtiradi;

9. Qashqadaryo viloyati agrosanoatini klasterlashtirish asosida keyingi besh yillik (2025-2029)da o‘rtacha o‘shish sur‘ati paxta hosildorligida 5,3 foizni, g‘alla hosildorligida 2,6 foizni, suv tejoychi texnologiyalar joriy qilingan yer maydonida 10,2 foizni, chorvachilik mahsuloti ishlab chiqarishning tarkibida fermer xo‘jaligining ulushida 13,6 foizni tashkil etadi;

10. Qashqadaryo viloyati agrosanoatini klasterlashtirish asosida keyingi besh yillik (2025-2029)da o‘rtacha o‘shish sur‘ati to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda 10,7 foizga, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 10,6 foizga, meva-sabzavotlarni qayta ishlash 10,3 foizga, go‘shetni qayta ishlash 6,9 foizga, logistik xizmat ko‘rsatishda 8,5 foizga, innovatsion ishlab chiqarishda 5,1 foizga oshishi ta‘minlanadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ
DSc.03/27.09.2024.I.55.03 ПРИ УРГЕНЧСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ**

**УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ АБУ
РАЙХАНА БЕРУНИ**

АБДУЛЛАЕВ ОЛИМЖОН ГАЙРАТОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМА КЛАСТЕРИЗАЦИИ
АГРОПРОМЫШЛЕННОГО КОМПЛЕКСА В РЕГИОНЕ (НА ПРИМЕРЕ
КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ)**

08. 00. 12 — “Региональная экономика”

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Ургенч – 2025

Тема диссертации на соискание степени доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером B2024.4.PhD/Iqt4772.

Докторская диссертация выполнена в Ургенчском государственном университете имени Абу Райхана Беруни.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.urdu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: **Самиева Гулноза Тохировна**
доктор философии (PhD) по экономическим наукам,
доцент

Официальные оппоненты: **Рузметов Бахтияр**
доктор экономических наук, профессор
Норкувватова Гулмира Иззатуллаевна
доктор философии (PhD) по экономическим наукам,
доцент

Ведущая организация: **Термезский государственный университет**

Защита диссертации состоится « ____ » _____ 2025 года в ____ : ____ часов на заседании Научного совета DSc.03/27.09.2024.I.55.03 по присуждению ученых степеней при Ургенчском государственном университете имени Абу Райхана Беруни. (Адрес: 220100, г. Ургенч, ул. Х.Алимджана, 14. Тел.: (99862) 224-67-00; факс: (99862) 224-57-00, e-mail: info@urdu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Беруни. (зарегистрирована за номером _____). Адрес: 220100, г. Ургенч, ул. Х.Алимджана, 14. Тел.: (99862) 224-67-00; e-mail: arm@urdu.uz

Автореферат диссертации разослан « ____ » _____ 2025 года.

(реестр протокола рассылки № ____ от « ____ » _____ 2025 года).

И. С. Абдуллаев
Председатель диссертационного
совета по присуждению учёных
степеней, доктор экономических наук,
профессор

Т. Ж. Рахимов
Ученый секретарь научного
совета по присуждению ученых
степеней, PhD, доцент

Б. Рузметов
Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению
ученых степеней, д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В современный период, когда традиционные подходы не обеспечивают экономическую стабильность в мире, а развитие испытывает острую необходимость во внедрении инноваций, особую актуальность приобретают вопросы продовольственной безопасности и удовлетворения потребностей мирового населения в качественной агропромышленной продукции. По данным Продовольственной и сельскохозяйственной организации ООН (FAO)²², усиливается дефицит земельных и водных ресурсов, обостряются последствия изменения климата, усложняется управление ресурсами, увеличиваются масштабы таких проблем, как рост цен. Согласно заявлению Международной торговой организации (ИТА)²³, по состоянию на 2023 год более 52% мировых водных ресурсов, а на Ближнем Востоке и в Северной Африке — свыше 70% расходуются для нужд человеческой деятельности. В период 2021–2023 годов уровень недоедания вырос до 10,9%, а индекс цен на продукты питания увеличился на 20%. Кластерное производство составляет более 50% экономики развитых стран, в частности, в США этот показатель достигает 60%²⁴. В связи с этим всё более актуальными становятся вопросы совершенствования практики кластеризации агропромышленного комплекса и её последовательного внедрения в странах.

На глобальном уровне расширяется масштаб исследований, посвящённых формированию агропромышленной системы, ориентированной на производство высокотехнологичной, экологически чистой продукции при эффективном использовании имеющихся ресурсов. В частности, приоритет отдается научным исследованиям, направленным на совершенствование механизмов, способствующих повышению эффективности деятельности в звеньях кластеризованных агропромышленных комплексов — от создания сырья, первичной переработки, последующей переработки до производства полуфабрикатов и готовой продукции.

В целях повышения экономического потенциала Нового Узбекистана реализуются реформы по кластеризации как инструмент расширения межотраслевой кооперации, модернизации и диверсификации экономики, а также увеличения производственного и экспортного потенциала слаборазвитых регионов. Кластеры рассматриваются в качестве экономического драйвера в эффективном использовании агропромышленных ресурсов, развитии кооперации сельского хозяйства и промышленности, обеспечении сбалансированного развития регионов²⁵. В регионах Узбекистана особую

²² Электронный ресурс: <https://www.donorplatform.org/post/fao-statistical-yearbook-2023-world-food-and-agriculture/>

²³ Электронный ресурс: <https://www.trade.gov/trade-data-analysis/> / <https://www.webfx.com/industries/industrial/agriculture/statistics/>

²⁴ 1) Fronco S. et al. European Cluster Panorama 2021. Leveraging clusters for resilient, green and digital regional economies. Publications Office of the European Union. 2021. / DOI:10.2826/689035; 2) Электронный ресурс: https://www.clustercollaboration.eu/sites/default/files/2021-12/ECCP_European_Cluster_Panorama.pdf

²⁵ Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УФ-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы». ЭР: <https://lex.uz/docs/5841063>

актуальность приобретают такие задачи, как развитие инновационной деятельности агропромышленных предприятий, формирование процессов вертикальной интеграции между отраслями и регионами, создание активной инвестиционной среды, оптимальная организация логистических процессов. В связи с этим возникает необходимость совершенствования механизмов развития отрасли в кластерной системе. Поэтому в стране усиливается внимание к научным исследованиям, направленным на оптимизацию агропромышленного сектора, глубокую кластерную интеграцию между отраслями и регионами, расширение инновационной деятельности предприятий, повышение их эффективности и вывод развития на более высокий уровень.

Данная диссертационное исследование в определённой степени способствует реализации задач, предусмотренных Указах Президента Республики Узбекистан от 28 февраля 2022 года № PF-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», от 16 ноября 2021 года № PF-14 «О мерах по регулированию деятельности хлопково-текстильных кластеров», от 10 января 2023 года № PF-2 «О мерах по поддержке деятельности хлопково-текстильных кластеров, коренной реформе текстильной и швейно-трикотажной промышленности, а также дальнейшему повышению экспортного потенциала отрасли», Постановление от 15 декабря 2021 года № PQ-52 «О мерах по государственной поддержке сферы плодоовощеводства, дальнейшему развитию системы кластеров и кооперации в отрасли», а также Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 24 июля 2021 года № 458 «Об утверждении Положения о предоставлении субсидий для возмещения части расходов членов сельскохозяйственных объединений, участников плодоовощных кластеров и субъектов предпринимательства на приобретение интенсивных саженцев (карликовых и полукарликовых), столовых, кишмишных и технических сортов винограда, а также подвое, выращенных в местных условиях», а также другими нормативно-правовыми актами, относящимися к данной сфере.

